

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI QOSHIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/14.07.2022.B/QX.10.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ESHBEKOVA GULJAXON G‘OFUR QIZI

***JUGLANS REGIA L.* NING *AGROBACTERIUM TUMEFACIENSGA*
CHIDAMLI MAHALLIY FORMALARINI TANLASH VA
MIKROKLONAL KO‘PAYTIRISH**

03.00.12–Biotexnologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Eshbekova Guljaxon G‘ofur qizi

Juglans regia L. ning *Agrobacterium tumefaciens* ga chidamli mahalliy formalarini tanlash va mikroklonal ko‘paytirish.....3

Эшбекова Гулжахон Гофур кизи

Отбор и микроклональное размножение устойчивых к *Agrobacterium tumefaciens* местных форм *Juglans regia* L.....21

Eshbekova Guljakhon Gofur kizi

Selection and micropropagation of local forms of *Juglans regia* L. resistant to *Agrobacterium tumefaciens*.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI QOSHIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/14.07.2022.B/QX.10.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ESHBEKOVA GULJAXON G‘OFUR QIZI

***JUGLANS REGIA* L.NING *AGROBACTERIUM TUMEFACIENSGA*
CHIDAMLI MAHALLIY FORMALARINI TANLASH VA
MIKROKLONAL KO‘PAYTIRISH**

03.00.12- Biotexnologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/B999 raqami bilan ro'yxatga olingan

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tiame.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismailov Zafar Fayzullayevich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shapulatov Umidjon Muxammedovich
biologiya fanlari doktori

Qosimov Diyorbek Ilhom o'g'li
biologiya fanlari falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

O'simlik genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti qoshidagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/14.07.2022.b/qx.10.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «14» 02 kuni soat 16⁰⁰ dagi onlayn majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy, Tel.:(+99871) 237-19-31, faks:(+99871)237-38-79; e-mail: ifar@tiame.uz)

Dissertatsiya ishi bilan "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti qoshidagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 356 raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy, Tel.:(+99871) 237-19-31, faks:(+99871)237-38-79; e-mail: ifar@tiame.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «31» 01 kuni tarqatildi.
(2025-yil «31» 01 dagi 2 raqamli reestr bayonnomasi).



D.R. Egamberdiyeva

D.R. Egamberdiyeva
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash raisi, q.x.f.d.

Sh.N. Kuziyev

Sh.N. Kuziyev
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
PhD, dotsent

F.N. Kushanov

F.N. Kushanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi global ahamiyatga ega bo'lib, insoniyatning barqaror rivojlanishi uchun asosiy masalalardan biridir. Aholi sonining o'sishi, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning kamayishi oziq-ovqat yetishmovchiligi xavfini kuchaytirmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, keyingi yillarda yer yuzida oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini ta'minlash borasidagi muammolar inson salomatligi va iqtisodiy rivojlanishga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu muammoni hal qilishda ekologik toza qishloq xo'jaligi uchun sharoitlar yaratish, shuningdek, o'simlik kasalliklariga qarshi kurashish, samarali va barqaror oziq-ovqat yetishtirish texnologiyalarini joriy qilish muhimdir. Shu bilan birga, mahalliy darajada qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatni oziq-ovqat bilan ta'minlash masalalarini barqaror rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida ekinlar va mevali daraxtlarning kasalliklarga chidamli navlarni yaratish, hamda ularni keng miqyosda qo'llash bo'yicha tadqiqotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu borada, ozuqaviy qiymati yuqori bo'lgan mevali o'simliklar, jumladan, yong'oqning kasalliklarga bardoshli navlarini tanlash, ko'paytirish va iqlimlashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kasallangan daraxtlardan ajratib olingan virulentligi yuqori bakteriya izolyatlari yordamida bakterial rak kasalligiga chidamli mahalliy nav va formalarini tanlash, ularni *in vitro* usulida ko'paytirishning optimal sharoitlarini tanlash, kasallikka chidamli mahalliy nav hamda formalarini mikroklonal usulda ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqish orqali sog'lom ko'chatlardan iborat yong'oqzorlarni yaratish borasidagi ilmiy yechimlarni asoslashga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda bog'dorchilik, xususan, yong'oqchilikni barqaror rivojlantirish bo'yicha bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xorijiy mamlakatlardan keltirilgan yong'oq navlarini iqlimlashtirish orqali plantatsiyalar yaratish bo'yicha muayyan natijalarga erishildi. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan Strategiyasida ¹«qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning talablari asosida viruslardan xoli, yuqori hosilli sertifikatlangan urug' va ko'chatlarni yetishtirish va yetkazib berish tizimini samarali yo'lga qo'yish» bo'yicha maqsad va vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, jumladan, istiqbolli *Juglans regia* L. ning kasalliklarga bardoshli mahalliy nav va formalarini mikroklonal usulda ko'paytirish orqali ko'chatlarini yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llashning biotexnologik asoslarini yaratish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4861-sonli qarori, 2020-yil 25-noyabrdagi "Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni.

ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4899-sonli qarori, 2021-yil 15-iyuldagi "Respublikada o'simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6262-sonli farmoni hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy adabiyot va manbalarda *Juglans regia* L. ning butun dunyo bo'ylab keng qo'llanilayotgan navlarning xususiyatlari (R.Romano va boshq., 2022, K.Vahdati va boshq., 2016, A.N.Bilgin 2022), turli zamburug'lar bilan kasallanishi, ularga qarshi kurash choralari (H.Saremi, M.E. Amiri, 2010; V.A. Arnaudov, 2014; M.Hassan, K.Ahmad, 2017), bakterial kasalliklar bilan kasallanishi (D.Frutos, 2010; G.Bujdosó, 2022, C.Moragrega va boshq. 2023, L.Martins va boshq. 2019), shuningdek, turli nav va formalarni mikroklonal usulda ko'paytirish (K.Kepenek va boshq., 2016, R.J.Licea-Moreno va boshq., 2015, M.E.Stevens va boshq.,2018, A.Meier-Dinkel va boshq. 2015) borasida tadqiqotlar natijalari bayon etilgan. Tabiiy yong'oqzorlar va ularning biotsenozdagi ahamiyati to'g'risida Markaziy Osiyo olimlari (R.S.Vernik, 1984, M.T.To'ychiyev, 1959, S.S.Kalmikov, 1961, N.Kamolov va boshq., 2010) va boshqalar bir qator asarlar yozib qoldirishgan.

O'zbekistonda esa *Juglans regia* L. ning genetik resurslari va tabiiy sharoitda o'sgan mahalliy istiqbolli genotiplarini tanlash va o'rganish (E.A. Butkov va boshq., 2020, H.F. Hamroev va boshq., 2021, A. Qayimov va boshq., 2023), mahalliy, hamda chet eldan keltirilgan navlar asosida yaratilgan plantatsiyalarda ko'chatlarning zamburug'lar bilan kasallanishi (B.A.Xasanov va boshq., 2019, F.M.Boyjigitov, 2019), zararkunanda hasharotlar bilan zararlanishini o'rganish (E.U.Umurzaqov va boshq., 2019, O.Po'latov va boshq., 2020, Sh.Yuldasheva, 2010) borasida tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq, mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda *Juglans regia* L. ning mahalliy nav va formalarida uchraydigan bakterial patogenlar va ularga chidamlilik xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, mahalliy nav va formalarni mikroklonal ko'paytirish bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan. Jumladan, *A.tumefaciensga* chidamlilik xususiyatlariga ega bo'lgan nav va formalar aniqlanmagan. Vaholanki, turli formalarning kasalliklarga chidamlilik xususiyatini aniqlash kelajakda yangi istiqbolli navlar yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti Genetika va biotexnologiya kafedrasining 2018-2024-yillarga mo'ljallangan "Zarafshon vohasi tirik tabiati genofondi asosida biotexnologik potensialini tadqiq etish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Juglans regia* L.ning xorijiy navlari plantatsiyalaridan ajratilgan *Agrobacterium tumefaciens* ning virulent izolyatlari yordamida bakterial rak kasalligiga chidamli mahalliy nav va formalarni tanlash hamda ularni mikroklonal usulda ko‘paytirish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

J. regia L.ning xorijdan keltirilgan navlari ekilgan Samarqand viloyatidagi plantatsiyalarni bakterial rak kasalligi bo‘yicha skrining qilish;

kasallangan daraxtlardagi shishlardan *A. tumefaciens* izolyatlarini ajratish, virulentlik xususiyatlarini baholash va yuqori potensialga ega izolyatlarning sistematik o‘rnini molekulyar-genetik usullar yordamida asoslash;

virulentligi yuqori izolyatlar yordamida bakterial rak kasalligiga chidamli mahalliy nav va formalarni tanlash;

tanlangan mahalliy nav va formalarni *in vitro* usulida ko‘paytirishning optimal sharoitlarini tanlash;

J. regia L.ning bakterial rak kasalligiga chidamli mahalliy nav va formalarni mikroklonal usulda ko‘paytirish texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida *A. tumefaciens* ga chidamli mahalliy *J. regia* L. nav va formalari olingan.

Tadqiqotning predmeti Chandler navi va Paradoks payvandtagi asosida yaratilgan plantatsiyalarda kasallangan ko‘chatlar tanasida hosil bo‘lgan shishlardan ajratib olingan *A. tumefaciens* izolyatlari, *A. tumefaciens* izolyatlarining virulentlik xususiyatlariga ko‘ra skriningi, mahalliy *J. regia* L. nav va formalarining bakterial rak kasalligiga chidamlilik xususiyati, *A. tumefaciens* ga chidamli nav va formalarning *in vitro* sharoitda mikroklonal ko‘paytirish jarayonini baholashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida zamonaviy mikrobiologik, molekulyar-genetik, biotexnologik va statistik usullardan foydalanilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor, Samarqand viloyati misolida, *J. regia* L. ning xorijiy navlari asosida yaratilgan plantatsiyalarda bakterial rak kasalligining rivojlanish dinamikasi skrining qilingan;

J. regia L. ning xorijiy navlari asosida yaratilgan plantatsiyalardagi kasallangan ko‘chatlardan *A. tumefaciens* izolyatlari ajratib olingan, ajratilgan izolyatlarning 63 tasi virulent va 27 tasi novirulentlik ekanligi aniqlanib, yuqori virulentlik namoyon etgan izolyatlarning ushbu xususiyatlari zamonaviy molekulyar-genetik usullar yordamida isbotlangan;

ilk bor, *J. regia* L. mahalliy genotiplarining *A. tumefaciens* ga chidamlilik xususiyatlarini o‘rganish orqali mikroklonal ko‘paytirish uchun istiqbolli obyektlar sifatida Ideal navi, PDM23 va 202YaKT formalari tanlab olingan;

A. tumefaciens ga chidamli nav va formalarni *in vitro* sharoitda mikroklonal ko‘paytirishning optimal sharoitlari tanlangan va ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o‘tkazilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

J. regia L. ning xorijiy Chandler navi va Paradoks payvandtagi asosida yaratilgan plantatsiyalardan ajratib olingan *A. tumefaciens* bakteriyasi izolyatlari 16S rRNK genlari sekvens qilingan va olingan ma'lumotlar NCBI ma'lumotlar bazasiga PQ098240, PQ098241, PP854426, PQ098242, PQ098243, PQ098244, PQ113704, PQ098245, PQ098246, PQ098247 raqamlari bilan ro'yxatga olingan;

J. regia L.ning bakterial rak kasalligiga chidamli mahalliy nav va formalarini mikroklonal usulda ko'paytirish texnologiyasi ishlab chiqilgan, ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o'tkazilib, samarador bo'lishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi barcha tajribalar uch takroriy nisbatda olib borilganligi, olingan natijalar OriginPro 8.6 dasturida ANOVA va Tukey-Kramer testi asosida $P \leq 0,05$, $P \leq 0,01$ da nazorat qiymatidan ishonchli farq qilishi bilan tasdiqlanadi. Olingan natijalarning respublika va xalqaro anjumanlardagi muhokamasi hamda respublika va xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilishi, amaliyotga joriy etilganligining vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xorijiy navlar asosida tashkil etilgan *J.regia* L. plantatsiyalarida bakterial rak kasalligining rivojlanish dinamikasining o'rganilganligi, kasallik qo'zg'atuvchisi bo'lgan *A.tumefaciens* izolyatlarining ajratib olinib, virulentlik, molekulyar-genetik xususiyatlari o'rganilganligi va ushbu kasallikka chidamli mahalliy genotiplar aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa yuqori virulentlik xususiyatiga ega bo'lgan EG219 shtammi bakterial rak kasalligiga chidamli mahalliy genotiplarni aniqlashda, Ideal navi va PDM23 formasini mikroklonal ko'paytirish biotexnologiyasi esa istiqbolli genotiplarni mikroklonal ko'paytirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *J.regia* L.ning *A.tumefaciens* ga chidamli mahalliy formalarini tanlash va mikroklonal ko'paytirish mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mikroklonal ko'paytirishning klonlash bosqichida 1.5 mg/l BAP bilan ta'minlangan DKW oziqasiga qo'shimcha ravishda 0.4 mM konsentratsiyada floroglusinol qo'llash bo'yicha tavsiyalar SAG-AGRO MChJ Bog'bon *in vitro* laboratoriyasida grek yong'og'ining *A. tumefaciens* bakteriyasiga chidamli bo'lgan mahalliy Ideal navi va PDM23 formalarini ko'paytirish jarayonida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq Xo'jaligi Vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 28-maydagi 05/06-02-381 sonli ma'lumotnomasi). Natijada oziqa muhitiga tarkibiga kiritilgan floroglusionolning eksplantlarning yangi mikronovdalar hosil qilish xususiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi orqali Ideal navida nazorat variantiga nisbatan 11.2%, PDM23 formasida 17.9% qo'shimcha samaradorlikka erishish imkonini bergan;

mikroklonal ko'paytirish jarayoni ildizlash bosqichida 6.0 mg/l IBK bilan ta'minlangan, 1/2 miqdorida mineral tuzlar tutgan DKW oziqasini qo'llash bo'yicha tavsiyalar SAG-AGRO MChJ Bog'bon *in vitro* laboratoriyasida grek yong'og'ining *A. tumefaciens* bakteriyasiga chidamli mahalliy Ideal navi va PDM23 formasini ko'paytirish jarayonida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston

Respublikasi Qishloq Xo'jaligi Vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 28-maydagi 05/06-02-381 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, eksplantlarda ildiz hosil qilish jarayoni yaxshilanishi orqali Ideal navida nazorat variantiga nisbatan 15.5%, PDM23 formasida 20.3% qo'shimcha samaradorlikka erishish imkonini bergan;

eksplantlarini issiqxona sharoitida iqlimlashtirish bosqichida 1:2:1 nisbatda torf, vermikulit va perlit aralashmasini qo'llash bo'yicha tavsiyalar SAG-AGRO MChJ Bog'bon *in vitro* laboratoriyasi issiqxonasida Ideal navi va PDM23 formasi eksplantlarini iqlimlashtirish jarayonida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq Xo'jaligi Vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 28-maydagi 05/06-02-381 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, iqlimlashtirish bosqichida ko'chatlarning omon qolish ko'rsatkichi oshishi orqali nazorat variantiga nisbatan 36.5% qo'shimcha iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 6 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilab olingan, obykti va usullari tavsiflangan, ilmiy yangiligi belgilab berilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinish holati, nashr qilingan maqolalar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "***J.regia* L. ni yetishtirishda innovatsion yondashuvlar va muammolar tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida adabiyotlar tahlili keltirilgan. Jumladan, *J. regia* L. ning biologik tavsifi va ahamiyati, bioxilma-xilligi, fitopatogenlar va ularga qarshi kurashish usullari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda yong'oq ishlab chiqarish holati va ahamiyati, *J. regia* L.ning mahalliy nav va formalarini mikroklonal usulda ko'paytirishning ahamiyati, ushbu sohadagi yutuqlar va muammolar yoritilgan.


Dissertatsiyaning "**Tadqiqot sharoiti, materiallari va usullari**" deb atalgan ikkinchi bobida tadqiqot obykti, hududi va sharoiti, tadqiqotda ishlatilgan ozuqa muhitlari va ularning tarkibi, tadqiqot usullari haqida ma'lumot berilgan. Jumladan, bakterial rak bilan kasallangan daraxtlar tanasidagi shishdan

A.tumefaciens izolyatlarini ajratib olish, identifikatsiya qilish va izolyatlarning virulentlik xususiyatlarini oʻrganish, istiqbolli, mahalliy nav va formalar koʻchatlariga kuchli virulentlikni namoyon qilgan EG219 shtammini turli usullarda inokulyatsiya qilish orqali bakterial rak kasalligiga chidamli genotiplarni aniqlash, tanlangan mahalliy nav va formalarni mikroklonal koʻpaytirish jarayonini optimallashtirish usullari keltirilib oʻtilgan.

Dissertatsiyaning “*Juglans regia* L. ning bakterial rak kasalligiga chidamli mahalliy formalarini tanlash” deb atalgan uchinchi bobida Samarqand viloyatidagi xorijiy navlar asosida tashkil etilgan yongʻoqzorlarda bakterial rak kasalligining rivojlanish dinamikasi, tadqiqot hududidan ajratib olingan *A.tumefaciens* izolyatlarining molekulyar-genetik tahlili va virulentligi, *A.tumefaciens*ga chidamli, istiqbolli mahalliy nav va formalarni aniqlash uchun olib borilgan tajribalar natijalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning “*Juglans regia* L. ning istiqbolli mahalliy genotiplarini mikroklonal koʻpaytirish biotexnologiyasi” deb atalgan toʻrtinchi bobida *A.tumefaciens*ga chidamli, istiqbolli mahalliy nav va formalarni mikroklonal koʻpaytirish uchun olib borilgan tajribalar natijalari keltirilgan.

Samarqand viloyatidagi xorijiy navlar asosida tashkil etilgan yongʻoqzorlarda bakterial rak kasalligining rivojlanish dinamikasi. Samarqand viloyatining Jomboy, Bulungʻur va Payariq tumanlarida Chandler navi va Paradoks-Vlach payvandtagi asosida tashkil etilgan *J. regia* L. plantatsiyalarida 4-5 yoshli koʻchatlarning bakterial rak kasalligi bilan kasallanish holati oʻrganildi. 2021-yilda kasallik belgilari boʻlgan koʻchatlar soni Jomboy tumani plantatsiyalarida 58,2 %, Bulungʻur tumanida 47,1 % va Payariq tumanida 44,1 % ni tashkil etgan boʻlsa, keyingi 2022- va 2023-yillarda ushbu koʻrsatkichlar oshgani kuzatildi (1-rasm, oʻngda).




1-rasm. Plantatsiyalarda *Juglans regia* L. koʻchatlarida bakterial rak bilan kasallanishning oʻsish dinamikasi (oʻngda); Turli darajada kasallangan koʻchatlar ulushi (2023-yil): A-Jomboy, B-Bulungʻur, C-Payariq plantatsiyasida (chapda).

Shu bilan birga, shishlar koʻchatlarning asosiy tana aylanasining 10-15% dan 40% yoki undan koʻp qismini egallaganligiga koʻra, kasallikning turli darajalari kuzatildi. 2023-yilda turli darajada zararlangan koʻchatlarning ulushi 1-rasmda (oʻngda) keltirilgan. Maʼlumki, 5-6 yoshli koʻchatlarda ushbu kasallikning kuzatilishi ularning hosildorligini 30-40% ga kamayishiga olib keladi.

Shuni taʼkidlash kerakki, Chandler navi va Paradoks-Vlach payvandtagi plantatsiyalarida yosh koʻchatlarning bakterial rak bilan kasallanish darajasi har yili oshib boradi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, oʻsimliklarni ushbu

kasallikdan himoya qilish usullarini ishlab chiqish biotexnologiyaning dolzarb muammolaridan biridir.

Tadqiqot hududidan ajratib olingan *A.tumefaciens* izolyatlarining virulentlik xususiyatlari va molekulyar-genetik tahlili. Tadqiqot davomida, Jomboy plantatsiyasida kasallangan ko‘chatlar tanasida hosil bo‘lgan shishlardan 34 ta, Payariq plantatsiyasidan 24 ta, Bulung‘ur plantatsiyasidan 32 ta, jami 90 ta *Agrobacterium tumefaciens* izolyatlari ajratib olindi. Ajratib olingan izolyatlarning virulentlik xususiyatini aniqlash uchun indikator-test o‘simlik sifatida kalanxoe (*Kalanchoe daigremontiana* Mill), sabzi disklaridan (*Daucus carota*) va Vlach payvandtagi ko‘chatlaridan foydalanildi (2-rasm, o‘ngda). Natijada, ajratilgan izolyatlar orasidan 63 tasi turli darajada virulentlik xususiyatlarini namoyon qilishi aniqlandi.



2-rasm. Indikator o‘simliklarga virulent izolyatlar yuqtirilganda hosil bo‘lgan shishlar (o‘ngda): A-*Kalanchoe daigremontiana* Mill o‘simligida; B-sabzi disklarida, C- Vlach payvandtaglarida; Ti plazmidasidagi VirD2 genini aniqlash uchun o‘tkazilgan PZR tahlilining gel-elektroforegrammasi (chapda):M-DNK marker, 1-EG 106; 2-EG 122; 3-EG 144; 4-EG 175; 5-EG 207;6-EG 210; 7-EG 219; 8-EG 227; 9-EG 238; 10-EG 246; 11-EG 253; 12-EG 264; 13-EG 283; 14-EG 296; 15-EG 299; Elektroforez 1,2% li agarozga gelida o‘tkazilgan.

Ajratilgan izolyatlar orasida 12 ta shtamm (EG106; EG122; EG144; EG175; EG207; EG210; EG219; EG227; EG238; EG246; EG253, EG296) barcha test tizimlarida 60% dan yuqori virulentlikni namoyon etdi. Virulentlik uchun mas‘ul bo‘lgan genetik determinantlarni aniqlash maqsadida, yuqorida ko‘rsatilgan izolyatlar, shuningdek virulentlik namoyon etmagan EG264; EG283; EG299 izolyatlari pTi plazmidasida VirD2 geni mavjudligini aniqlash uchun PZR usuli yordamida tekshirildi (2-rasm, chapda). Natijada, virulent izolyatlarning barchasida VirD2 geni mavjud ekanligi, novirulent izolyatlarda esa mavjud emasligi namoyon bo‘ldi.

Keyingi tadqiqotda esa, Vlach payvandtagida 60% dan yuqori virulentlikni namoyon qilgan 10 ta izolyatlarning (EG106; EG175; EG207; EG210; EG219; EG227; EG238; EG246; EG253, EG296) 16S rRNK genlari asosida sekvensing tahlili o‘tkazildi, sekvensing natijalari asosida, Bioedit dasturida uzluksiz zanjir yaratildi va natijalar BLAST dasturi asosida tahlil qilinib, Biotexnologiya axborot Milliy Markazi (NCBI) bazasidagi turlar bilan o‘xshashligi solishtirildi (1-jadval).

**Virulent shtammlarning NCBI bazasidagi yaqin turlar
ketma-ketligi bilan qiyosiy tahlili**

NCBI bazasiga kiritilgan shtammlar		Eng yaqin turlar (16S rRNK genlari asosida)		
Shtammlar	Ro'yxatdan o'tkazish raqami	Shtammlar	Ro'yxatdan o'tkazish raqami	Mos kelish darajasi (%)
EG106	PQ098240	<i>A.tumefaciens cqsm_f1</i>	MN826533	100%
EG175	PQ098241	<i>A.tumefaciens YN11</i>	OM288134	100%
EG207	PP854426	<i>A.tumefaciens CY02</i>	MK249671	99.89%
EG210	PQ098242	<i>A.tumefaciens EBMB6</i>	OQ932814	99.92%
EG219	PQ098243	<i>A.tumefaciens FBG1034</i>	OR838799	99.85%
EG227	PQ098244	<i>A.tumefaciens R-7Q</i>	HQ396794	99.87%
EG238	PQ113704	<i>A.tumefaciens AR2</i>	MT279042	99.68%
EG246	PQ098245	<i>A.tumefaciens JZY4-60</i>	MT102305	100%
EG253	PQ098246	<i>A.tumefaciens IITA-TZ011</i>	OM909260	99.89%
EG296	PQ098247	<i>A.tumefaciens X-A284</i>	OP678587	100%

NCBI ma'lumotlar bazasida dunyoning turli mamlakatlarida (Xitoy, AQSH, Eron, O'zbekiston, Peru, Ispaniya, Tanzaniya) turli manbalardan ajratib olingan o'xshash shtammlar bilan virulent izolyatlarni taqqoslash ularning bir-biri bilan yuqori gomologiyasini ko'rsatdi.

Istiqbolli mahalliy *J. regia* L. nav va formalarining *A.tumefaciens* ga chidamliligini tekshirish. *J. regia* L. ning bakterial rak kasalligiga qarshi kurashning eng samarali usullaridan biri *A. tumefaciens* ga chidamli genotiplarni tanlash yoki yaratish hisoblanadi. Odatda, o'simliklarning mahalliy genotiplari mahalliy muhit omillariga nisbatan yuqori moslashuvchanlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu sababdan, keyingi tadqiqot vazifasi mahalliy *J. regia* L. nav va formalarini *A. tumefaciens* EG219 shtammiga chidamlilik belgisi bo'yicha seleksiya qilishdan iborat bo'ldi. O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti olimlarining ko'p yillik tadqiqotlari asosida, yong'oqning yuqori xo'jalik belgilariga ega bo'lgan 10 dan ortiq formalari ishlab chiqarishga joriy etish uchun tavsiya bergan. Ammo, ushbu istiqbolli genotiplarning bakterial rak kasalligiga chidamliligi o'rganilmagan. O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti olimlarining tavsiyasiga ko'ra, tadqiqot obyekti sifatida *J. regia* L. ning istiqbolli formalari - 55BGS, PDM23, 221KRK, 20FRSH, 202YaKT va Ideal navi tanlab olindi. Yong'oq formalarining *A. tumefaciens* EG219 shtammiga chidamliligi 10^8 hujayra/ml konsentratsiyada LB suyuq ozuqa muhitida o'stirilgan bakteriya kulturasini uch xil usulda inokulyatsiya qilish orqali o'rganildi. Birinchi variantda yong'oqlar ushbu muhitda 2 soat davomida ivitilib, keyin steril tuproqli tuvaklarga ekildi. Ikkinchi usulda hujayra kulturasini steril tuproqqa aralashtirildi va yong'oqlar ekildi. Uchinchi variantda hujayra kulturasini ko'chatlar unib chiqqach, ikki oydan so'ng, ularning tanasiga inokulyatsiya qilindi. Natijalar 6 oydan keyin ko'chat tanasida shishlar hosil bo'lganligi asosida baholandi. Nazorat variantida tuproq va yong'oqlar *A. tumefaciens* EG219 kulturasini bilan zararlantirilmadi (2-jadval).

Istiqbolli mahalliy *Juglans regia L.* nav va formalarining bakterial rak kasalligiga uchrash darajasini turli usullar yordamida aniqlash, % da

	Genotip	Inokulyatsiyalash usuli		
		Tuproqqa ishlov berish	Nishlagan urug'ga ishlov berish	Ko'chatga ishlov berish
1	Ideal navi	ShHB	ShHB	ShHB
2	55BGS forma	26,31±1,48*	18,75±0,82*	36,67±1,86*
3	PDM23 forma	ShHB	ShHB	ShHB
4	221KRK forma	13,33±0,68	11,11±0,45	16,67±0,74*
5	20FRSH forma	11,76±0,63	28,57±1,26*	26,67±1,58*
6	202YaKT forma	ShHB	ShHB	ShHB

Izoh. * belgisi $p \leq 0,05$ da ahamiyatga ega ekanligini bildiradi; ShHB - belgisi shish hosil bo'lmaganligini bildiradi; tajriba uchun olingan ko'chatlar soni =10, qaytariqlar soni, n=3.

Ko'rinib turibdiki, yong'oqning 55BGS, 221KRK va 20FRSH formalarida kasallikning belgilari uchala inokulyatsiya usulida ham turli darajada namoyon bo'lgan. Aksincha, Ideal navi bilan bir qatorda PDM23, 202YaKT formalarida esa, kasallikning belgilari namoyon bo'lmadi. Shu sababdan, mikroklonal ko'paytirish jarayoni uchun Ideal navi va ushbu ikkita forma tanlab olindi.

Yong'oq eksplantlarining o'sishiga *in vitro* sharoitida o'stirish sharoitlarining ta'siri. Tadqiqotimizning keyingi bosqichida bakterial rak kasalligiga nisbatan chidamlilikni namoyon etgan Ideal navi va PDM23, 202YaKT formalarini mikroklonal usulda ko'paytirish jarayoniga turli omillarning ta'siri o'rganildi. Mikroklonal ko'paytirish uchun donor daraxtlardan kirish materiali olish 2023-yilning aprel-may oylarida amalga oshirildi. Sterilizatsiya jarayonidan so'ng, eksplantlar turli konsentratsiyada 1,0 mg/L, 1,5 mg/L, 2,0 mg/L 2iP bilan ta'minlangan 10 ml MS yoki DKW ozuqa muhitida shisha probirkalarga individual ravishda ekildi va standart yorug'lik sharoitlarida saqlandi. MS+2iP muhitiga nisbatan DKW+2iP muhitida eksplantlar o'sishini rag'batlantirishning yuqoriroq darajasi kuzatildi. Ideal navi va PDM23 formasi eksplantlarida DKW+1,0 mg/L 2iP ozuqa muhitida eksplantlarning regeneratsiya ko'rsatkichi mos ravishda 58,3%, 63,3% ga teng bo'lgan bo'lsa, 202YaKT formasi eksplantlari uchun bu ko'rsatkich DKW+1,5 mg/L 2iP ozuqa muhitida 52,7% ni tashkil etdi (3-jadval).


Ozuqa muhitida 2iP gormoni konsentratsiyasining ortishi bilan eksplantlarning regeneratsiya ko'rsatkichi pasayganligi qayd etildi. DKW+2,0 mg/l 2iP ozuqa muhitida, Ideal navi, PDM23 va 202YaKT formalari eksplantlarda mos ravishda, 36,7%, 30,8% va 18,3% keyingi bosqichga muvaffaqiyatli o'tdi. MS+2,0 mg/l 2iP ozuqa muhitida bu ko'rsatkich mos ravishda, 23,3%, 26,7%, 18,3% ni tashkil etdi.

Tanlab olingan mahalliy nav va formalarni *in vitro* ko'paytirishning kirish bosqichida turli ozuqa muhirlari va o'sish gormonlarining ta'siri

Genotip (nav yoki forma)	Turli ozuqa muhiti va gormon konsentratsiyasida regeneratsiyalangan eksplantlar (%)			
	MS+0,05 mg/L IMK			
	2iP			
	Nazorat	1,0 mg/L	1,5 mg/L	2,0 mg/L
Ideal	18,3±0,5	46,7±1,1**	38,3±0,7*	23,3±0,6
PDM23	21,7±0,4	53,3±1,1**	31,6±0,8	26,7±0,7
202YaKT	13,3±0,3	33,6±0,8*	21,7±0,6	18,3±0,4
	DKW+0,05 mg/L IMK			
	2iP			
	Nazorat	1,0 mg/L	1,5 mg/L	2,0 mg/L
Ideal	25,8±0,5	58,3±1,2**	41,7±1,1*	36,7±0,4
PDM23	28,3±0,6	63,3±1,1**	38,3±0,8*	30,8±0,5
202YaKT	15,4±0,3	20,6±0,3	52,7±0,8**	18,3±0,4

Izoh. * belgisi nazoratga nisbatan $p \leq 0,05$ da, ** belgisi $p \leq 0,01$ da ahamiyatga ega ekanligini bildiradi; tajriba uchun olingan eksplantlar soni =60, qaytariqlar soni, n=3.

Ozuqa muhiti tarkibida turli konsentratsiyadagi o'sish regulyatorlarining multiplikatsiya bosqichida o'simlik regenerantlarining rivojlanishiga ta'siri. Natijalar ko'rsatdiki, BAP, TDZ va MT konsentratsiyasi oshishi bilan har uchala genotipda yangi mikronovdalar hosil bo'lishi ortdi (3- rasm).




3-rasm. Turli konsentratsiyadagi BAP, TDZ va MT ning regenerantlarning multiplikatsiya bosqichida yangi mikronovdalar hosil qilishiga ta'siri: A-Ideal navi; B-PDM23 forma; C-202YaKT forma (Izoh. * belgisi nazoratga nisbatan $p \leq 0,05$ da, ** belgisi $p \leq 0,01$ da ahamiyatga ega ekanligini bildiradi; tajriba uchun olingan eksplantlar soni =40, qaytariqlar soni, n=3).

Ushbu bosqichda yangi mikronovdalar hosil qilish ko'rsatkichi eng muhim ekanligini hisobga olsak, BAP konsentratsiyasi 2,0 mg/L bo'lganda, Ideal navi, PDM23 va 202YaKT formasida eng yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi, ya'ni yangi mikronovdalar soni mos ravishda, 2,4, 2,2 va 1,6 ga teng bo'ldi. TDZ va MT 2 mg/l konsentratsiyada qo'llanilganda, bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada past bo'ldi. BAP konsentratsiyasi 1,5 mg/l bo'lganda esa, yangi mikronovdalar soni uchala genotipda ham 2,0 mg/L BAP bilan ta'minlangan ozuqa muhitidagi

eksplantlar ko'rsatkichlariga nisbatan pastroq, ya'ni, Ideal navi, PDM23 va 202YaKT formasi regenerantlarida yangi mikronovdalarning o'rtacha soni mos ravishda, 1,8, 1,6, 1,5 ga teng bo'ldi. Garchi, 2 mg/L BAP konsentratsiyasida har uchala genotipda yangi mikronovdalar soni, regenerant uzunligi miqdor jihatdan eng yuqori ko'rsatkichlarni namoyon qilgan bo'lsa-da, regenerantlarda morfo-fiziologik muammolar paydo bo'ldi. Regenerantlarning barglarida sarg'ayish, poya qismida oq kallussimon o'simtalar hosil bo'lishiga sabab bo'ldi.

Multiplikatsiya bosqichi samaradorligini oshirishda floroglusinolning ta'siri. Multiplikatsiya bosqichi samaradorligini oshirish uchun ozuqa muhiti tarkibida turli konsentratsiyadagi floroglusinolning (0, 25, 50, 75, 100 mg/L) ta'siri o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Ideal navi va PDM23 formasi regenerantlarida floroglusinolning konsentratsiyasi ortishi bilan ularda yangi mikronovdalar soni, kallus o'lchami va eksplant uzunligi ortdi (4-rasm). Ozuqa muhiti tarkibiga qo'shilgan floroglusinol konsentratsiyasi 75 mg/L bo'lganda, regenerantlarning vitrifikatsiyaga uchrash ko'rsatkichi keskin oshgan, ya'ni, Ideal navi, PDM23 va 202YaKT formasi regenerantlarining mos ravishda, 45,0%, 39,2% va 54,2% qismi vitrifikatsiyaga uchragan. Floroglusinol konsentratsiyasi 100 mg/L bo'lganda esa, bu ko'rsatkichlar mos ravishda, 53,3%, 46,7% va 63,3% ni tashkil etgan.



4-rasm. Turli xil floroglusinol konsentratsiyasining turli genotip regenerantlarining ko'rsatkichlariga ta'siri: A- yangi mikronovdalar hosil qilishi (dona); B- vitrifikatsiya (Izoh. * belgisi nazoratga nisbatan $p \leq 0,05$ da, ** belgisi $p \leq 0,01$ da ahamiyatga ega ekanligini bildiradi; tajriba uchun olingan eksplantlar soni =40, qaytariqlar soni, n=3).


Ushbu tajribada, floroglusinol konsentratsiyasi 50 mg/L ga teng bo'lganda esa, Ideal navi, PDM23 va 202YaKT formasida hosil bo'lgan yangi mikronovdalar soni mos ravishda, 3.6, 2.5 va 1.6 ga teng bo'lgan bo'lsa, regenerantlar uzunligi o'rtacha 5.8 sm, 6.6 sm va 5.5 sm ga teng bo'ldi. Kallus o'lchami esa mos ravishda, 3.6 sm, 3.3 sm va 2.9 smga teng bo'ldi. Vitrifikatsiya ko'rsatkichi esa, Ideal navi va PDM23 formasi regenerantlarida o'rtacha 16,7% ni, 202YaKT formasi regenerantlarida esa 25.0% ni tashkil etdi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Ideal navi va PDM23 formasi regenerantlarida multiplikatsiya bosqichining samaradorligini oshirish uchun ozuqa muhiti tarkibida 1.5 mg/L BAP ga qo'shimcha ravishda 50 mg/L konsentratsiyada floroglusinol qo'llash optimal deb topildi. 202YaKT formasi

regenerantlarida esa ozuqa tarkibida floroglusinol qo'llash multiplikatsiya bosqichi samaradorligini oshirmadi.

